

RIVOJLANGAN XORIJ MAMLAKATLARIDA MUSIQA ASARLARI ELEKTRON KUTUBXONALARINI YARATISH TAJRIBASI

Ganiyeva B. I. TATU, AKT kafedrası mudiri, professor
Yaxshiboyeva Sh. B. TATU, Elektron kutubxona
va arxivlar mutaxassisligi magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa asarlari elektron ma'lumotlar ba'zalarining jahondagi tajribalari o'rganilib, tahlil qilindi. O'zbekistondagi musiqaga oid elektron kutubxonalarni yaratish uchun foydali tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: elektron ma'lumotlar bazasi, musiqaga oid elektron ma'lumotlar bazasi, musiqa asarlari, elektron kutubxona.

ОПЫТ СОЗДАНИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ БИБЛИОТЕКИ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В РАЗВИТЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Б.И. Ганиева. Зав.кафедрой ИБС, ТУИТ
им.Мухаммада ал-Хоразми, профессор
Ш. Б. Яхшибоева. Магистрант по специальности
“Электронные библиотеки и архивы”

Аннотация. В данной статье изучен и проанализирован опыт создания электронных баз данных музыкальных произведений в мире. Дан ряд полезных рекомендаций для создания электронных библиотек по музыкальным изданиям в Узбекистане.

Ключевые слова: электронная база данных, электронная база данных по музыкальным произведениям, музыкальные произведения, электронная библиотека.

THE EXPERIENCE OF CREATING A DIGITAL LIBRARY OF MUSICAL WORKS IN FOREIGN COUNTRIES

B. I. Ganieva. Professor, head of department LIS,
TUIT named by Al-Khorazmi
Sh. B. Yakhshiboyeva. TUIT named by Al-Khorazmi,
master's student of Electronic library and archives

Abstract. In this article, the experiences of electronic databases of musical works in the world were studied and analyzed. A number of useful suggestions were made for music libraries in Uzbekistan.

Key words: *electronic database, music electronic database, musical works, digital library.*

Bugungi kunda Respublikamizda O'zbek milliy musiqa asarlari elektron kutubxonasini yaratishda jahondagi ma'lumotlar bazalarini o'rganish orqali, elektron ma'lumotlar bazalarini yaratish usullari, ulardan kutubxonalarda foydalanish imkoniyatini o'rganib, kutubxonalarga joriy qilish muhim hisoblanadi.

Quyida xorijdagi musiqa sohasiga oid elektron resurslar ma'lumot bazalari haqida ma'lumot beriladi.

“Dutch Song Database” – Gollandiya qo'shiqlari ma'lumotlar bazasi <http://www.liederenbank.nl>. “Dutch Song Database” – Gollandiya qo'shiqlari ma'lumotlar bazasi o'tmishdagi va hozirgi Gollandiya qo'shiqlari madaniyatini hujjatlashtiradigan raqamli bazadir. Unda o'rta asrlardan to hozirgi kungacha golland va flamand tillaridagi qo'shiqlarga ikki yuz mingga yaqin havolalar, shuningdek, qo'shiqlar kitoblari, qo'lyozmalar va dala yozuvlari kabi qo'shiq manbalarining 18 mingdan ortiq yuqori sifat standartlari tavsifi mavjud. Gollandiya qo'shiqlari ma'lumotlar bazasi Amsterdamdagi Meertens institutida yaratilgan va Golland qo'shiqlarini hujjatlashtirish va tadqiq qilish markazi, Gollandiya qo'shiqlari merosi jamg'armasi, Utrext, Antverpen, Gent va Leuven universitetlari, Niderlandiyaning raqamli kutubxonasi va Gaagadagi “Koninklijke Bibliotheek” bilan hamkorlikda ishlaydi. Ushbu ma'lumotlar bazasining asosiy xususiyati – golland qo'shiqlarining paydo bo'lishiga to'plangan havolalar mavjudligidir.

Gollandiya qo'shiqlari ma'lumotlar bazasi musiqa va adabiyotshunos olimlar hamda umumiy jamoatchilik bilan doimiy ravishda maslahatlar olib boradi. Ma'lumotlar bazasi bugungi kungacha ishlab chiqilganligi sababli, tarixiy musiqashunoslik, musiqani bilish va o'rganish, musiqa ma'lumotlarini qidirish, tarix va filologiya kabi turli fanlar bo'yicha empirik tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi.

“CMC music library” <https://cmccanada.org> “CMC music library” Kanada musiqasini onlayn va beshta mintaqaviy markazda kashf qilish, o'rganish, tinglash

va ijro etish imkonini beradi. Dunyoni Kanada musiqasi va uni yaratgan iste'dodli san'atkorlar bilan bog'lab, onlayn va kredit kutubxona, shuningdek nashriyot va repertuar bo'yicha maslahat xizmati orqali kanadalik bastakorlarning partituralari va asarlarining keng arxivini saqlaydi. Professional kanadalik bastakorlarning o'sib borayotgan hamjamiyatini veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar orqali, butun dunyo bo'ylab konferensiyalar va o'quv seminarlarida o'z musiqalarini namoyish etadigan qimmatli madaniy manba hisoblanadi.

CMC (Kanada musiqa markazi) bir qator davlat idoralari – federal, viloyat va shahar – huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar, jamg'armalar, sanoat va uning oddiy a'zolarining xayriyalari hisobidan moliyalashtiriladi. Markaz musiqa yozuvlarini sotmaydi va tarqatmaydi, ularni faqatgina 2 oy muddatga 10 tagacha to'plamlarni foydalanishga olib turish mumkin. Bu xorijliklar uchun ham amal qiladi.

University of Toronto Music Library <https://music.library.utoronto.ca>

Minglab elektron jurnallar, elektron kitoblar, elektron bazalar hamda audio va video oqimlarga onlayn kirish imkonini beruvchi Toronto universiteti Musiqa kutubxonasi musiqa tarixi va musiqani tahrirlash, ijro etish va chop etish tarixini aks ettiruvchi 2500 jild – liturgik qo'lyozmalar va dastlabki bosma risolalar, Motsart, Gaydn, Betxovenning birinchi nashrlarigacha va Kanadaning ilk musiqa va kuylarigacha, Fransuz repertuarida alohida kuchga ega bo'lgan 18-19 asr operalarining katta qismiga ega va u bazaning fondlarini tashkil qiladi.

Ushbu raqamli musiqa kutubxonasi musiqaga oid onlayn audio va video manbalarni, dissertatsiyalar va tezislar, maxsus to'plamlar, lug'atlar va ensiklopediyalar, tadqiqot qo'llanmalarini ham o'z ichiga olgan. Musiqa bazasida Kanadaning musiqaga oid barcha ma'lumotlar bazalariga havolalar berilgan. Bunda, nodir kitoblar to'plamidan tortib, musiqa arxivlari, onlayn etnografik tovush arxivlari, nota musiqa to'plamlari ham joy olgan. Music Library saytida foydalanuvchilar uchun maxsus virtual chat ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, foydalanuvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga online javob olishlari mumkin.

Shu bilan bir qatorda, foydalanuvchilar tadqiqot talablari va uni olib borish bo'yicha kerakli ma'lumotlar olish va muhokama qilish uchun kutubxonachi bilan uchrashuv belgilashlari mumkin. Foydalanuvchilar saytdan ro'yxatdan o'tish orqali ma'lumotlardan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Oxford Music Online <https://www.oxfordmusiconline.com>

Oxford Music Onlinening Grove Music Online sayti musiqa, musiqachilar, musiqa ijodkorligi va musiqiy stipendiyalar haqida keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan dunyodagi eng yirik onlayn musiqa ensiklopediyasi hisoblanadi.

Tez-tez yangilanib turadigan Grove Music Online tadqiqot, o'qitish yoki musiqa haqida ko'proq ma'lumot olishga qiziqqan har bir kishi uchun muhim hisoblanadi. 9000 ga yaqin fan ekspertlari tomonidan yozilgan va tahrirlangan Grovening 51000 ta maqolalari ilmiy nuqtai nazardan mavzularning aniq sharhlarini taqdim etadi va foydalanuvchilarga mavjud stipendiyalar bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun tuzilgan keng bibliografiyalarni o'z ichiga oladi. Bu ilmiy tadqiqotlar uchun eng zo'r boshlanish nuqtasi, ammo aniq va tushunarli yozuv uslubi bilan Grove havaskor musiqa ixlosmandlari uchun ham foydalanishga qulaydir.

Oxford Music Online saytining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Bibliografiyalar, ommaviy axborot vositalari va tegishli manbalarga havolalar bilan boy qo'llab-quvvatlovchi materiallarga ega nufuzli, ekspertlar tomonidan ko'rib chiqilgan maqolalar;
- Manba, tur, mavzu va mavjudligi bo'yicha aniqlashtirish uchun murakkab filtrlash imkoniyatlariga ega kuchli qidiruv tizimi;
- Intuitiv navigatsiya va maqolalarni saqlash, chop etish yoki almashish imkoniyatlari;
- OpenURL muvofiqligi foydalanuvchilarga kutubxona katalogi va tashqi resurslarni bibliografik ma'lumotlar bilan so'rash imkonini beradi;
- O'quv resurslari, jumladan, mavzu bo'yicha qo'llanmalar va vaqt jadvallari.

Ushbu musiqa ma'lumotlar bazalari musiqa maktablari o'quvchilari hamda musiqachilar, musiqa oliy o'quv yurtlari talabalari, musiqa sohasida izlanish olib borayotgan, ilmiy ish qilayotgan o'qituvchi va talabalar uchun foydali bo'lib, ularga jahon miqyosidagi ma'lumotlardan foydalangan holda musiqashunoslik, musiqani bilish va o'rganish, musiqa sohasini qamrab olgan turli fanlar bo'yicha empirik tadqiqotlar o'tkazish imkoniga ega bo'ladilar. Bu bazalar orqali hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda qanday ishlar olib borilayotgani, magistrlik, doktorantlik dissertatsiyalarida qanday mavzular tanlab, himoya qilishayotganlaridan xabardor bo'lib borishadi. Shuningdek, Grove Music Online sayti orqali musiqa sohasidagi ilmiy maqolalarni o'qish, ulardan o'zlariga kerakli ma'lumotlar olish va shu orqali ilmiy maqola yozish salohiyatini oshirishlari mumkin.

Ushbu tahlillar natijasida O'zbekistonda milliy musiqani rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- ✓ O'zbek milliy musiqa bazasini shakllantirish;
- ✓ musiqaga oid barcha tashkilotlar, korxonalar va o'quv yurtlarining o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish;
- ✓ o'zbek milliy musiqasining paydo bo'lishidan to hozirgi kungacha bo'lgan ma'lumotlar olingan manbalarga havolalar ro'yxatini tashkil qilish;
- ✓ ma'lumotlar bazasini sifatli tashkil qilish maqsadida musiqashunos olimlar, adabiyotshunoslar va mutaxassislar bilan doimiy maslahatlar olib borish;
- ✓ milliy musiqa asarlari tarmog'ida musiqaga oid ilmiy maqolalar, foydalanuvchilarga mavjud stipendiyalar bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun bibliografik ma'lumotnomalarni tuzish;
- ✓ milliy musiqa asarlari tarmog'ida keng qamrovli ma'lumotlar: kitoblar, dissertatsiyalar va tezislar, maxsus to'plamlar, lug'atlar va ensiklopediyalar, tadqiqot qo'llanmalari, ovoz yozuvlari, partituralar,

davriy nashrlarning elektron shakllari, audio va video ma'lumotlar oqimlariga onlayn kirish imkoniyatini yaratish;

- ✓ milliy musiqa bazasida foydalanuvchilar uchun maxsus virtual chatni yo'lga qo'yish va bu orqali ularni qiziqtirgan savollarga tezkor javob berishni amalga oshirish;
- ✓ tarmoq interfeysini soddalashtirish va qidiruv tizimini mukammallashtirish.

Foydalanilgan manbalar

1. Ganieva B.I. Jahon axborot resurslari: darslik / B.I. Ganieva. - Toshkent: Aloqachi, 2021.-199b.
2. Raxmatullaev M.A., Ganieva B.I. Jahon axborot resurslari: darslik / M.A.Raxmatullaev, B.I. Ganieva; oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU. - Toshkent: Aloqachi, 2019.-192 b.
3. Peter van Kranenburg, Martine de Bruin, Anja Volk. "Documenting a song culture: the Dutch Song Database as a resource for musicological research": article. – Springer.com: 13 september, 2017. (<https://link.springer.com/>)
4. <http://www.liederenbank.nl>
5. <https://collections.cmccanada.org>
6. <https://cmccanada.org>
7. <https://www.oxfordmusiconline.com>
8. <https://music.library.utoronto.ca>